

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'рни va ahamiyati	6
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlar vertikal tabaqalanishini matematik modellashtirish.....	15
Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov Ekoturizm resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida)	22
T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbonov, K.O.Daljanov Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari	30
O.T.Mirzamahmudov Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari	36
O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri	41
G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev Xavfli meteorologik hodisalarning takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) ..	45
Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish	54
R.Y.Xoliqov Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'rtasidagi geokimyoviy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri.....	61
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari.....	64
Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash	68
D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlarini.....	81
K.M.Xakimov Antroponimik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida	87
Y.B.Raxmatov Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari	93
R.T.Pirnazarov Shohimardonsoy havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari	96
P.R.Qurbonov Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlarini.....	103
H.A.Oblaqulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi.....	113
Z.X.Madaminov Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish	118
E.G'.Mahkamov Farg'ona vodiysida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari	122
Z.A.Temirov Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'rtasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish.....	128
M.M.Avezov, A.M.Elmurotova Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiy tabiiy geografik tavsif	135
M.R.Usmanov O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar.....	140

BUXORO VILOYATINING CHO'L HUDUDLARIDA SUVDAN SAMARALI
FOYDALANISHNING GEOGRAFIK MUAMMOLARIГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЦИАЛЬНОГО ВОДОПОЛЬЗОВАНИЯ В
ПУСТЫННЫХ РАЙОНАХ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИGEOGRAPHICAL PROBLEMS OF EFFICIENT WATER USE IN THE DESERT AREAS
OF BUKHARA REGIONRaxmatov Yusupjon Babakulovich¹¹Navoiy davlat pedagogika instituti
geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedراسи dotsenti, g.f.n.**Annotatsiya**

Ushbu maqolada cho'l hududlarida suvdan foydalanishning geografik muammolari masalalari yoritilgan. Cho'l hududlarida suv yig'iluvchi vaqtincha oqar suv havzalar doirasida ro'y beradigan tabiiy jarayonlarini o'rganish va muammolarni bartarf qilish uchun asos bo'la olishi aniqlangan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются географические проблемы использования воды в пустынных районах. Было обнаружено, что временный сток воды, собранный в пустынных районах, может служить основой для изучения природных процессов, происходящих в бассейнах, и преодоления проблем.

Abstract

This article addresses the geographical challenges of water use in desert areas. It has been found that the temporary flow of water collected in desert areas can serve as a basis for studying the natural processes that take place within the basins and overcoming problems.

Kalit so'zlar: Cho'l, dasht, quruq dasht, rayonlashtirish, xavza, landshaft tipi, meliorativ sharoit, tuproq qatlami, litodinamik va geoximik oqimlar, suv resursi.

Ключевое слово: Пустыня, степь, сухая степь, районирование, бассейн, тип ландшафта, мелиоративные условия, почвенный слой, литодинамические и геохимические потоки, водные ресурсы.

Key words: Desert, steppe, dry steppe, zoning, basin, landscape type, reclamation conditions, soil layer, lithodynamic and geochemical flows, water resources.

KIRISH

Barqaror rivojlanishning asosiy poydevori bo'lgan iqtisodiy salohiyat birinchi navbatda mamlakatimizning tabiiy resurslaridan, ayniqsa, yer-suv resurslaridan samarali foydalanishni taqozo qiladi. O'zbekistonning yetmish foizdan ortiqroq maydoni qurg'oqchil, ya'ni cho'l va tog' oldi, chala cho'l-quruq dasht zonasiga kiradi. Mazkur zonada bunyod etilgan vohalar, iqtisodiy-ijtimoiy tizimlar va aholining suv ta'minoti asosan o'zga hududlardan kirib kelayotgan suv manbalari hisobidan qondiriladi. Shu bois bugungi kunda respublikamizda ichimlik va sug'orma suv muammosi davlat siyosati darajasida turgan vazifalardan biridir. Ayniqsa, bu muammo mamlakatimizning markaziy cho'l zonasida joylashgan va uning to'qqiz foiz maydonini egallab turgan Buxoro viloyati uchun hayot-mamot masalasidir. Viloyat xududi to'lig'icha cho'l zonasida joylashganligi, mahalliy sug'orma suv manbalariga ega emasligi, buning ustiga daryoning quyi qismda bo'lishi o'lka tabiatining salbiy sifatlaridan sanaladi. Zarafshon daryosi orqali keladigan oqava va zovur suvlari unda erigan tuz-kimyoviy ashyolar viloyat xududiga oqib keladi va ularning aksariyat qismi shu zaminda to'planib qolmoqda. Bu hol yurtdagi ekologik vaziyatni borgan sari keskinlashuviga sabab bo'lmoqda. Ota-bobolarimiz «Daryoning boshidagi asal ichadi, oxiridagisi esa zahar» degan dono hikmati hozirgi kunda Buxoro zaminiga qarata aytilgandek tuyuladi. Shuning bilan bir qatorda viloyatning geografik o'rni uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy ravnaqi uchun qulay imkoniyatlarga ega. Bu maskanni qadimda «lpak yo'li» ustida joylashganligi, keyinchalik Sharqdagi «Qubbat-ul islom»- islom ta'limotining gumbaziga ilm, ma'rifat va madaniyatning «Minorai Kalonga» aylanganligi uning geografik o'rni bilan ham bevosita bog'liqdir. Bundan tashqari viloyat xududi ko'laminig kattaligi, «hayot manbai» Amudaryoga va Turkman eliga yondoshligi hamda davlatlararo suv, yo'l va aloqalar tugunida joylashganligi uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, va madaniy rivojiga ko'mak beradigan geografik omillardan biridir. Bugungi kunda viloyatning ichimlik va sug'orma suvga bo'lgan ta'minoti to'lig'icha, ayniqsa, quyi Zarafshon xududi Amu-Buxoro mashina kanali orqali Amudaryo suvi bilan qondiriladi. Bu suv ketma-ket joylashgan nasos stansiyalari orqali yuqoridagi yerlarga ko'tarilib beriladi va iqtisodiy jihatdan qiymatga

tushadi. Shu sharoitda suvga bo'lgan talab ham yildan-yilga ortib bormoqda. Amudaryodan suv olish imkoniyatlari esa tobora murakkablashib bormoqda. Bundan tashqari Afg'oniston shimolida qurilayotgan Qo'shtepa sug'orish kanali Amudaryodan 90 km. shimoli-g'arbga Mazari-Sharif shahridan Tojikiston chegarisi orqali 285 km masofada, chuqurligi 8.5 m bo'lib, Balx, Djauzjon. Farab provinsiyalari bo'ylab o'tadi.

Mazkur muammolarni yechishning strategik yo'llaridan biri mahalliy tabiiy resurslar imkoniyatlaridan samarali foydalanishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirishda, masalaga landshaftli-ekologik yondashuv ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Gap shundaki, tabiiy resurslar tabiatda alohida-alohida uchramaydi. Ular bir-biriga bog'liq holda, aniq hududda, aniqrog'i, landshaftlarda mujassam bo'ladi. Uni tashkil qilgan jonsiz va jonli komponentlar (relyef, tog' jinslari, issiqlik, namlik, tuproq, organik dunyo) o'zaro modda va energiya almashuvi tufayli bir-biriga bog'liq va bir butunlikka ega. Landshaft doirasida mujassam bo'lgan bir resursdan noto'g'ri foydalanish undagi boshqa resurslarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli landshaftdagi tabiiy resurslardan foydalanishda yoki ularni baholashda resurslarni bir-biri bilan bog'liqligi g'oyasini inobatga olgan holda ish tutmoq zarur. Ayniqsa, iqlim o'zgarishi va boshqa antropogen omillar ta'siri oqibatida bugungi kunda Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryolari shakllanadigan muzliklar o'rtacha 30 foizga qisqarib, daryolarning suvlilik darajasi keskin pasaymoqda.

Ta'kidlanganidek, global iqlim o'zgarishi, shuningdek, transchegaraviy suvdan foydalanish muammolari tufayli yillik olinayotgan suv belgilangan hajmga(limitga) nisbatan o'rtacha 20 foizga qisqargan. Hozirda O'zbekiston nufuzi 34 milliarddan oshib, aholi jon boshiga o'rtacha 1500 kub metr suv to'g'ri kelmoqda. Mutaxassislar taxminicha, 2030 yilgacha aholi soni 39 millionga kupaysa, bu ko'rsatgich 1250 kub metrda tushib ketishi mumkin. O'shanda aholining ichimlik suvga bo'lgan talabi 2,3 milliard kub metrdan 3 milliard kub metrga yetishi kutiladi. Shuningdek, sanoat va energetika sohalari faol rivojlanib, yillik suv iste'moli 1,9 milliard kub metrdan 2030 yilga borib 3,5 milliard kub metrga yetadi.



Rasm-1. Zarafshon daryosining o'ng irmoqlaridan Mag'iyondaryoning quyilish joyiga qadar bo'lgan oralig'da Ostonasoy soyliqi.

Suv xo'jaligi vazirligi axborotida aytilishicha, O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasida tarmoqni 2030-yilgacha rivojlantirishning 11 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan. Ularda mamlakatimizning barcha iqtisodiyot tarmoqlarini suv bilan kafolatli ta'minlab, suv xavfsizligiga erishish ko'zda tutilgan. Shuningdek, suvni yetkazib berish uchun davlat xarajatlarini iste'molchilar tomonidan qoplash mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy qilinadi[5]. Olimlarimiz, deputatlarimiz tomonidan aksariyat suv xo'jaligi hududlaridagi tarmoqlaridan 50-60 yildan buyon foydalanib kelinayotgani, ularning texnik holati

talabga javob bermasligi, suvning 35-40 foizi sug'orish tarmoqlarida yo'qolayotganini hisobga olib, ularni bartaraf etish bo'yicha suv xo'jaligi vazirligiga takliflar berilgani diqqatga sazavordir.

Biroq shunga qaramasdan tabiiy resurslarga bo'lgan talab xo'jalik yo'nalishlari bo'yicha namoyon bo'ladi. Masalan, tibbiyot uchun dorivor o'simliklar, sanoat, qurilish uchun geologik ma'danlar, chorvachilik uchun yaylovlar va suv, dehqonchilik uchun iqlim-yer-suv resurslari asosiy hisoblanadi. Qayd qilish joizki, har qanday resurs bir xo'jalik tarmog'i uchun tabiiy sharoit bo'lsa, ikkinchisi uchun resurs (moddiy boylik) hisoblanadi.

Quyida Zarafshon, ayniqsa Buxoro viloyati hududining salkam 90% maydonini egallab turgan tabiiy-antropogen landshaftlari hozirgi kunda turli xo'jalik maqsadlarida foydalanib kelinmoqda. Lekin, cho'l zonasida uchun asosiy ijtimoiy talab, uning yaylov va mahalliy suv resurslaridan samarali foydalanishdir. Chunki cho'l zonasida yaylov-suv «qo'shbirligi» cho'l landshaftlarining bioresurs imkoniyatlarini belgilaydi.

Hozirgi kunda cho'l landshaftlarining yaylov va mahalliy suv imkoniyatlaridan foydalanish talab darajasida emas. Tabiiy-antropogen resurslardan foydalanishdagi ko'p egalik, biryoqlamalik, ekologik savodsizlik, rejasizlik o'zining salbiy oqibatlarini ko'rsatmoqda. O'simlik qoplami yakson bo'lgan maydonlar, yalang'och taqirli, qum-chag'illi yuzalar, ko'chma qumlar va kovlangan tashlandiq joylarning ko'lami ortmoqda, cho'llanish jarayoni tobora xuruj qilmoqda[4].

Cho'l zonasida atmosfera yog'inlari tufayli qish va bahor oylarida katta miqdorda suv hosil bo'ladi. Ota-bobolarimiz bunday suvlardan samarali foydalanганlar. Hozirgi kunda esa xalqimizning ko'pgina ibratli tarixiy tajribalari e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Ammo bu muammolar viloyat hududi doirasida landshaft tiplari asosida hanuzgacha o'rganilmagan.

XULOSA

Xusola qilib aytish mumkinki, mazkur tadqiqotlar «Quyida Zarafshon», «Zarafshon deltasi», «Qorako'l deltasi», «Buxoro–Qorako'l voha bo'ylari»ga bag'ishlangan bo'lib, viloyat hududining ayrim qismlarini qamrab olgan xolos. Ikkinchidan, tabiiy resurslar umumiy tarzda ta'riflangan, resurs turlarining birortasi bo'yicha baholash mezonlari ishlab chiqilmagan. Uchinchidan, landshaftlar tipologik tasniflanmagan. Tabiiy komplekslar, landshaftlarni nomlash va tabaqalashda izlanuvchilar o'rtasida yakdillikdan ko'ra chalkashliklar ko'p. To'rtinchidan, viloyat landshaftlarining rivojlanish tarixi, ularning negizi, yoshi, hududiy ko'lami bilan bog'lanmagan. Beshinchidan, yuqorida qayd qilingan nomlar bilan chop etilgan asarlar ma'muriy hudud rahbari va geografiyaga yondosh fan vakillari e'tiborini tortmaydi, nihoyat ularning amaliyotga joriy etilishi talab darajasida emas. Yuqorida qayd etilganlar Buxoro viloyatining cho'l zonasida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolarining dolzarbligini ko'rsatadi. Zero, mazkur muammoning O'zbekiston tomonidan qabul qilingan «Cho'llanishga qarshi kurash Konvensiyasi», «Bioxilma-xillikni saqlash», «Iqlim o'zgarishining Doiraviy Dasturi», «Ioxannesburg–2002–Barqaror rivojlanish dasturi» kabi xalqaro dasturiy hujjatlar hamda mamlakatimizning «Tabiiy-antropogen resurslardan, ayniqsa suv, yer, mineral xom-ashyo, biologik resurslardan oqilona foydalanish» dasturi bilan uyg'unligi mazkur muammoning ustuvorligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Глазырин Г.Е., Рацек И.В., Щетинников А.С. Изменение ледникового стока рек Средней Азии в связи с возможными изменениями климата // Тр. САНИГМИ. –в. 117(198). – 1986. – С. 59-70.
2. Груза Г.В., Ранькова Э.Я. Обнаружение изменений климата: состояние, изменчивость и экстремальность климата //Метеорология и гидрология. -№ 4.-2004. –С. 50-66.
3. Спекторман Т.Ю., Никулина С.П. Мониторинг климата, оценка климатических изменений по территории Республики Узбекистан // Оценка изменений климата по территории Республики Узбекистан, развитие методических положений оценка уязвимости природной среды–Бюллетень №5. Ташкент: САНИГМИ, 2002.–С. 17-25.
4. Suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari.